

ULUG‘BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDA OTA OBRAZI TALQINI

Obloqulova Dilovar Furkatovna*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi**E-mail: dilovaroblokulova@gmail.com*

Annotasiya. *Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning "Ota" romanida ota timsolining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda ota obrazining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, uning oiladagi o'рни hamda farzand tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan. Maqola davomida romandagi qahramonlar xarakteri va badiiy vositalar orqali milliy qadriyatlarining aks etilishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot so'ngida esa asarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati va otalik mas'uliyatini anglashdagi o'рни haqida xulosalar beriladi.*

Kalit so'zlar. *Badiiy talqin, ota, Ulug‘bek Hamdam, roman, tarbiya, milliy qadriyatlar .*

O‘zbek adabiyotida ota obrazi eng muhim va yetakchi obrazlardan biri hisoblanadi. Turli xil davrlarda yaratilgan badiiy asarlarda ota timsoli oilaning tayanchi, himoyachi va ma'naviy qadriyatlar davomchisi sifatida ko'rsatilgan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham bu mavzu dolzarbligini saqlab qolgan bo‘lib, yozuvchilar tomonidan yangi badiiy va g‘oyaviy yondashuvlar asosida yoritilmoqda. Shunday asarlardan biri Ulug‘bek Hamdamning "Ota" romanidir. Ushbu asarda haqiqiy o‘zbek otasi siymosiga duch kelamiz. Muallifning ta'kidlashicha, asar "chin otalarga bag‘ishlanadi." Ushbu maqolada romandagi ota obrazining badiiy talqini hamda uning ma'naviy-axloqiy qirralari tahlil qilinadi.

Ulug‘bek Hamdamning "Ota" romani o‘zbek adabiyotida ota obrazini to‘liq gavdalantirgan asarlardan biridir. Adabiyotshunoslikda obraz badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiluvchi muhim estetik kategoriya hisoblanadi. Ota obrazi esa milliy adabiyotimizda ma'naviy qadriyatlar, oilaviy mas'uliyat va tarbiya masalalarini ifodalovchi yetakchi timsollardan biri sifatida talqin qilinadi. Romanning bosh qahramoni Po‘lat o‘zbek otalariga xos bo‘lgan fazilatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. U oilasiga sadoqatli, farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashadigan, mehnatsevar va o‘z vijdonga sodiq shaxs sifatida gavdalanadi. Shu sifatlar orqali yozuvchi o‘zbek otasining milliy timsolini badiiy shaklda yaratadi. Po‘latning yaqinlari va farzandi bilan bo‘lgan munosabati uning otalik fazilatlarini aniq namoyon qiladi. Bunga misol sifatida romanning ushbu qismnini ko'rsatishimiz mumkin. Sevinchning oliy ta'lim muassasasida duch kelgan ruhiy bosim bilan bog'liq voqealardir. Bolaligida yuz bergan yong'in oqibatida yuzida qolgan kuyish izlari sababli atrofdagilarning munosabati qizning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada u o'qishni davom ettirishdan voz kechmoqchi bo'ladi. Ushbu vaziyatda Po'lat obrazining haqiqiy otalik

fazilatlarini yorqin namoyon bo'ladi. Qizining qisqa va sodda gapidan uning qalbidagi iztiroblarni anglagan ota farzandini tanbeh berish yoki ayblash yo'lini tanlamaydi. Aksincha, unga ma'naviy tayanch bo'lib, kelajakka ishonch ruhini singdirishga harakat qiladi. Po'latning "hammasi yaxshi bo'ladi, qizim, faqat taslim bo'lma" mazmunidagi daldasi ota mehrining, farzand taqdiriga befarq bo'lmagan insoniy mas'uliyatning yorqin ifodasidir. Mazkur epizod orqali muallif ota obrazini nafaqat oilaning moddiy tayanchi, balki farzand ruhiyatini nozik his qila oladigan ma'naviy suyanch sifatida talqin etadi.

Ulug'bek Hamdam Po'lat obrazini ideal qahramon sifatida emas, balki hayotiy va murakkab xarakter egasi sifatida tasvirlaydi. Asar davomida uning mehribonligi bilan bir qatorda qattiqqo'lligi ham namoyon bo'ladi. Bu jihat obrazning badiiy ishonarliligini kuchaytiradi. Yozuvchi ota ruhiyatini ichki kechinmalar, dialoglar va voqealar rivoji orqali ochib beradi. Natijada Po'lat obrazi o'quvchi xotirasida uzoq saqlanib qoladigan ta'sirchan siymo sifatida gavdalanadi. Bu jihat obrazning badiiy ishonarliligini kuchaytiradi. Yozuvchi ota ruhiyatini ichki kechinmalar, dialoglar va voqealar rivoji orqali ochib beradi. Natijada Po'lat obrazi o'quvchi xotirasida uzoq saqlanib qoladigan ta'sirchan siymo sifatida gavdalanadi.

Romanda Po'lat personajiga psixologik tasvir usuli bilan ham yondashilgan. Muallif qahramonning ichki dunyosini uning farzandiga bo'lgan munosabati, ruhiy kechinmalari va hayotiy qarashlari orqali yoritadi. Ayniqsa, Sevinchning tushkunlikka tushgan paytida otaning unga dalda berishi obrazning ma'naviy-axloqiy qiyofasini ochishga xizmat qiladi. Shu tariqa yozuvchi ota obrazini faqat oilaning boshlig'i sifatida emas, balki farzand ruhiyatini tushuna oladigan mehribon inson sifatida tasvirlaydi.

Xulosa. Mehribon ota va fidoiy farzand o'rtasidagi samimiy hamda fojeali munosabatlar roman syujeti va mazmunining asosini tashkil etadi. Sevinchning otasidan yashirin ravishda nikoh qurishi asardagi fojeaviy voqealarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillardan biri sifatida tasvirlanadi. Muallif Sevinch obrazi orqali qizlarga, Po'lat obrazi orqali esa otanalarga muhim hayotiy saboqlarni yetkazishni maqsad qilgan. Asarda oilaning jamiyat va inson hayotidagi beqiyos o'rni, ota mas'uliyati hamda farzand tarbiyasining dolzarb masalalari badiiy talqin etilgan. Roman nafaqat ota obrazini yoritadi, balki yosh avlodni otanani qadrlash, oilaviy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalaydi. Asarda farzand va ota o'rtasidagi ishonchning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Shu jihatdan "Ota" romani ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, "Ota" romani o'zbek adabiyotida ota obrazining ma'naviy-axloqiy qirralarini yorqin ochib bergan muhim asarlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug‘bek Hamdam, "Ota" Toshkent: " Yangi asr avlodi", 2022-yil, 208 b.
2. Ziyonet (www.ziyonet.uz) - O‘zbek adabiyoti va Ulug‘bek Hamdam haqida ilmiy maqolalar.
3. A. Ulug‘ov. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" G‘/G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Toshkent -2018